O'ZBEKISTON FOND BOZORINING RIVOJLANISH OMILLARINI EKONOMETRIK TAHLIL QILISH

Husanova Ozoda Akmal qizi
O'zbekiston Milliy Universiteti 2-kurs magistranti.
ozodahusanova905@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24445983

Annotatsiya. *Tadqiqotda O'zbekiston fond bozorining 2023-2026-yillarga oid oylik ma'lumotlaridan foydalanildi.*

Dastlab fond bozori holatini tavsiflovchi oltita ko'rsatkich ko'rib chiqildi. Dastlabki regressiya modelida multikollinearlik muammosi aniqlandi.

VIF ko'rsatkichlari asosida ayrim omillar chiqarib tashlanib, yakuniy ko'p omilli chiziqli regressiya modeli shakllantirildi.

Natijalar bozor kapitallashuvi bilan O'zbekiston kompozit indeksi va savdoda qatnashgan aksiyadorlik jamiyatlari soni o'rtasidagi statistik bog'liqlikni ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: *fond bozori, bozor kapitallashuvi, aksiyalar, kompozit indeks, regressiya tahlili, multikollinearlik, VIF, ekonometrik model.*

Kirish

O'zbekiston fond bozorini rivojlantirish, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorida savdo faolligini kengaytirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Shu sababli fond bozorining asosiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik usullar yordamida o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning asosiy maqsadi bozor kapitallashuvining o'zgarishi bilan fond bozorining asosiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi statistik bog'liqlikni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi:

Tadqiqotda O'zbekiston fond bozorining 2023-2026-yillarga oid 42ta oylik statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

Dastlab fond bozori holatini tavsiflovchi quyidagi oltita ko'rsatkich tanlab olindi: bozor kapitallashuvi, O'zbekiston kompozit indeksi, oylik fond bozori aylanmasi, o'rtacha kunlik aylanma, bozordagi bitimlar soni hamda oy davomida savdoda qatnashgan aksiyadorlik jamiyatlari soni.

Tadqiqotda bozor kapitallashuvi bog'liq o'zgaruvchi sifatida tanlandi. Chunki ushbu ko'rsatkich fond bozorining umumiy qiymatini ifodalab, uning rivojlanish darajasini baholash imkonini beradi.

Dastlabki regressiya modeliga O'zbekiston kompozit indeksi, oylik fond bozori aylanmasi, o'rtacha kunlik aylanma va savdoda qatnashgan aksiyadorlik jamiyatlari soni mustaqil o'zgaruvchilar sifatida kiritildi.



Dastlabki regressiya tahlili natijasida modelning determinatsiya koeffitsiyenti 0,918, F-statistikasi 104,042 va ahamiyatlilik darajasi 0,001 dan kichik ekanligi aniqlandi. Bu modelning umumiy statistik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Biroq model koeffitsiyentlarini baholashda mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida multikollinearlik muammosi mavjudligi aniqlandi.

Multikollinearlikni aniqlash uchun VIF ko'rsatkichidan foydalanildi. Dastlabki model natijalariga ko'ra, oylik fond bozori aylanmasining VIF qiymati 1191,837, o'rtacha kunlik aylanmaning VIF qiymati esa 1193,688 ni tashkil etdi.

Ushbu qiymatlar odatda qo'llaniladigan chegaralardan ancha yuqori bo'lib, mazkur ikki o'zgaruvchi o'rtasida juda kuchli chiziqli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, multikollinearlik muammosini kamaytirish va modelni soddalashtirish maqsadida o'zgaruvchilarning bittasini ya'ni dastlabki modeldan oylik fond bozori aylanmasi chiqarildi va qolgan o'zgaruvchilar o'rtasida regressiya modeli qurildi.

Buning natijasida ham multikollinearlik yuqori chiqdi. Xuddi shu tarzda model yaroqlilikka tekshirildi.

Natijada O'zbekiston kompozit indeksi va savdoda qatnashgan aksiyadorlik jamiyatlari soni asosida yakuniy regressiya modeli qurildi.



Yakuniy modelda quyidagi o'zgaruvchilardan foydalanildi:

Y -bozor kapitallashuvi,

X_1 -oy davomida savdoda qatnashgan aksiyadorlik jamiyatlari soni;

X_2 -O'zbekiston fond bozori indeksi.

Tahlil SPSS dasturida ko'p o'zgaruvchili chiziqli regressiya usuli yordamida hisoblandi. Regressiya tenglamasi quyidagicha:

$$y = 235107.547 - 4736.215x_1 + 460.915x_2$$

O'zbekiston fond bozori indeksi bozor kapitallashuvi bilan ijobiy statistik bog'liqlikka ega. Koeffitsiyentning 460,915 ga tengligi boshqa omil o'zgarmagan sharoitda indeksning bir birlikka oshishi bozor kapitallashuvining o'rtacha 460,915 birlikka yuqoriroq bo'lishi bilan bog'liqligini anglatadi. Ushbu natija statistik jihatdan ahamiyatli.

Oy davomida savdoda qatnashgan aksiyadorlik jamiyatlari sonining koeffitsiyenti -4736,215ga teng. Bu tanlangan model doirasida mazkur ko'rsatkich bilan bozor kapitallashuvi o'rtasida manfiy statistik bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Modelning determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0.917$ ga teng. Demak, tanlangan mustaqil o'zgaruvchilar bozor kapitallashuvidagi o'zgarishlarning 91,7 foizini model doirasida izohlaydi.

F-statistikasining 216,327ga tengligi va modelning ahamiyatlilik darajasi $p < 0.001$ bo'lishi regressiya modelining umumiy jihatdan statistik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

VIF qiymati 1,010 ni tashkil etdi. Ushbu qiymat 5 dan ancha kichik bo'lib, tanlangan o'zgaruvchilar o'rtasida jiddiy multikollinearlik muammosi mavjud emasligini ko'rsatadi.

Demak, mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi kuchli chiziqli bog'liqlik regressiya koeffitsiyentlarini baholashga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmaydi.

XULOSA.

Tadqiqot natijalari O’zbekiston fond bozorining bozor kapitallashuvi O’zbekiston fond bozori indeksi hamda oy davomida savdoda qatnashgan aksiyadorlik jamiyatlari soni bilan statistik jihatdan bog’liqligini ko’rsatdi.

Fond bozor indeksi bozor kapitallashuvi bilan ijobiy, savdoda qatnashgan aksiyadorlik jamiyatlari soni esa manfiy bog’liqlikka ega bo’ldi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari fond bozori kapitallashuvining o’zgarishini baholashda aksiyalar narxlari dinamikasi va savdo tarkibini hisobga olish muhimligini ko’rsatadi. O’zbekiston fond bozorining yanada rivojlanishi uchun aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi oshirish, aksiyalar likvidligini ta’minlash, investorlar uchun ochiq va shaffof axborot muhitini shakllantirish hamda fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Kelgusidagi tadqiqotlarda qo’shimcha makroiqtisodiy ko’rsatkichlarni hisobga olish, vaqt qatorlariga xos diagnostik tekshiruvlarni amalga oshirish va modelning prognozlash imkoniyatlarini baholash orqali olingan natijalarning ishonchliligini yanada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi
2. https://www.google.com/goto?url=CAESVQHrOzAVFfDKxZIpB63ysqm_TjoAAKcB1RWrmi5LpVi2Yiu8M70SVbexxI336J326sSeQZWA10k-_qp6AnKzeQOCe7QdAsbRO-4RnYwUd3_emt_1TeY
3. https://www.google.com/goto?url=CAESZwHrOzAVzrPx-WHbMIbkMxq6Ld7AiS8SyamzCBIbDfLLMd7WMrS6IvloTMPRHBznYwt3oDjtsxO0i_LkS3x7FZ8PjOz3GSRYtYw2G1XXi2KBZ_sFKiv0UV7MyJsnnZofRkee9CHMxog